O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163
Ro'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике.....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	



Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
Кучаров Абдор Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni.....	1375
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari.....	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash	1411
Maxkamboyev Komil Abdulxakovich	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar	1416
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
Raximov Furqat Jalolovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari	1431
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari	1437
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
Mirzayev Bobur Soyibjonovich	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish	1448
Davletov Ikram Raximberganovich	
Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире	1452
Нуриллаев Рахмат Ярашевич	
Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klasterlash imkoniyatlaridan foydalanish	1458
Mavlanov G'olib	



TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Mavlanov G'olib

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dekan muovini

Annotatsiya: Maqolada klasterlash asosida turizmni rivojlantirishga kompleks yondashish, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi obyektlarini shakllan-tirish, hududlardagi mavjud salohiyatdan to'liq va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirish bayon etilgan. Shu bilan birga, sayyohlar qiziqishini oshirish, "jamlash markazi" orqali qulaylik yaratish va bu borada mahalliy aholining ijodiy yondashuvi yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovasion yondoshuv, jozibadorlik, kompleks yondashish, salohiyat, samara, infratuzilma, "jamlash markazi", ijodiy yondashuv, istiqbol.

Abstract: The article describes a comprehensive approach to the development of tourism on the basis of clustering, the formation of modern tourism infrastructure, expanding the scope of work on the full and effective use of existing potential in the regions. At the same time, it focuses on increasing the interest of tourists, creating convenience through the "concentration center" and the creative approach of the local population in this regard.

Key words: innovative approach, attractiveness, integrated approach, potential, efficiency, infrastructure, "concentration center", creative approach, perspective.

Аннотация: В статье описан комплексный подход к развитию туризма на основе кластеризации, формирования современных объектов туристской инфраструктуры, а также расширения масштабов проводимой работы по полному и эффективному использованию существующего потенциала в регионах. При этом подчеркивается повышение интереса туристов, создание удобств за счет "концентрационного центра" и творческий подход местных жителей в этом отношении.

Ключевые слова: инновационный подход, привлекательность, комплексный подход, потенциал, эффективность, инфраструктура, "центр концентрации", творческий подход, перспектива.

KIRISH

Turizm rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining kuchli katalizatori bo'lib, chet el valyutasi va sarmoyalar oqimini ta'minlaydi, unga yaqin sohalarning tez o'sishiga ko'mak beradi, aholi bandligi muammolarini hal etishda yordam beradi va mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi obro'sini oshiradi. Boshqa sohalar bilan qiyoslaganda ancha kam sarf-xarajat bilan turizm sohasida katta valyuta miqdori kelib tushishini ta'minlash mumkin. Turizm sohasi taraqqiyotidagi hozirgi holat, uning istiqbolini belgilovchi ko'rsatkichlar tahlili turizm industriyasi faoliyatini shakllantirishning iqtisodiy, tashkiliy omillarini o'rganish, turizm xizmati sifatini ko'tarish, milliy turistik korxonalar, firmalarning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda milliy turizm mahsulotiga xorijliklar talabini o'stirishga asos yaratadigan mukammal ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda turizm industriyasi va infrastrukturasi, shu jumladan, turistik xizmat sohasi umummamlakat miqyosida olib borilgan xususiyashtirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish jarayoni talablariga mos holda qayta isloh qilindi. Ammo bu sohada hanuz qator muammolar, hatto uning rivojiga g'ov bo'lib turgan "to'siqlar" ham mavjud [1].

Mamlakatimiz turizm tizimi taraqqiyotining jadal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan omillardan biri turistik xizmatlar ko'rsatishning talab darajasida emasligidir. Bu esa, o'z navbatida, turizm industriyasining katta turistik resurslarga ega bo'lgan hududlarda sohani rivojlantirish imkoniyatini chegaralab qo'ymoqda. Turizm, o'z navbatida, tabiiy va ijtimoiy resurslarni to'liq safarbar etishda o'ziga xos tizim hisoblanadi. Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va estetik ehtiyojlarni, madaniy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga, ekologiyaga nisbatan munosabatlarni tartibga keltirishga, biologik xilma-xillikni asrab-avaylashga, aholining hayot darajasi tubdan yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga kompleks yon-



dashish, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi obyektlarini shakllantirish, hududlardagi mavjud salohiyatdan to'liq va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham bugungi kunning eng muhim dolzarb masalalaridan biriga aylantirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish muammolari mutaxassislar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan muntazam muhokama qilinib kelinmoqda. Mazkur tadqiqot ishlari I. T. Balabanov, M. B. Birjakov, V. A. Kvar-talnov, M. A. Jukova kabi xorijlik mutaxassislar va yurtdosh-larimiz N. T. Tuxliyev, M. K. Pardayev, G. H. Qudratov, Q. Mirzayev, O. Hamidov, M. Alimova, T. T. Tashmurotov ^[4] kabi iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilmoqda. Turizm xizmatlar ko'rsatishni shakllanishi va rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini hozirgi zamonda kecha-yotgan moliyaviy o'zgarishlar kesimida tashkil qilish umumiy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan ekanligi soha mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgan. Ammo turizm sohasi rivojining konseptual asoslarini shakllantirish va uni amalga tatbiq etish jarayonining ko'p qirrali va g'oyat murakkab ekanligi bois tug'iladigan muammolarning aksariyati nazariy va metodik jihatdan to'liq o'rganilmay qolmoqda. Aynan shu holat tadqiqot ishining maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Turizm sohasini uning funksiyalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, shu narsa aniq bo'ladiki, turizmning klassik tarzdagi uchligi "turizm + joylashtirish + ko'ngil ochish" ijtimoiy iqtisodiy soha vazifalarining qariyb ham-masini o'z ichiga oladi.

Bundan esa, "turizm turli xil, o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etadigan kichik tizimlardan iborat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim" ekanligi aniq bo'ladi ^[2]. Turizmning amalga mavjud bo'lgan, uning ko'p qirraliligini isbot-lovchi ko'psonli ta'riflari ham yuqoridagi fikrni tasdiqlashi mumkin. Amaliy turistik faoliyat mavjudligi uni o'rganish uchun nazariy metodik yondashuvlarni yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi. Turizm rivojlanishi va ommaviy hodisaga aylana borishi bilan sayohat qilayotgan odamlarni statistik hisobga olish maqsadida "turizm" tushun-chasiga berilgan dastlabki ta'riflar paydo bo'ldi ^[3].

Maqolada analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, tanlab kuzatish, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlan-tirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinlarini ko'payti-rish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan. 2018-yildan kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O'zbekistonda bo'lish qoidalarini hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzil-maning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ'ib qilish choralari ko'rilgani ko'rsatish mumkin, shu jumladan: fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko'paygani; elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgan ^[4].

Mamlakatimiz hududlari aholisi turmush tarzining o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda, ba'zi noodatiy loyi-halarni sinab ko'rish talab etiladi. Masalan, turizm klasteri tushunchasiga kengroq urg'u berib, joylarda "klaster markazi" yaqinida besh yoki olti xonadondan iborat kichik posyolka bunyod etish va har taraflama ibratli, namu-nali oilalarni joylashtirish lozim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – chet ellik sayyohlarni mahalliy aholiga yanada yaqinlashtirish, ya'ni, bir-necha kunlik mehmonnavozlik davomida milliy qadriyatlarimizga qiziqish uyg'otish va ushbu bebaho merosdan bahramand qilishdan iborat. Shu bilan birga, joylarning tabiiy go'zalligi, urfodatlarini hamda an'analarini bilan tanishtirishni mahalliy aholidan yaxshiroq uddalaydigan bironta mutaxassisi ni topish qiyin. To'g'ri, ushbu taklif o'z- o'zidan oson bitadigan oddiy ishlar emas, balki maxsus tayyorgarlikdan o'tish va moliyaviy mablag'lar bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu bilan birgalikda turizmni moliyalashtirishda ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish muhimdir (1-jadval).

1-jadval: Turizmni rivojlantirishni moliyalashtirish manbalari

№	Moliyalashtirish manbalari	1 yil	2 yil	3 yil
1	Turizmni rivojlantirish qo'mitasi	+	+	+
2	Viloyatlardagi turizmni rivojlantirish departamenti	+	+	
3	Davlat grantlari	+	+	+
4	Kredit mablag'lari	+	+	+
5	Innovatsion loyihalar va ishlanmalar hamda xizmatlar realizatsiyasi hisobidan		+	+



6	Homiylik manbalari	+	+	+
7	Azolik badallari hisobiga		+	+

Turizmni rivojlantirish istiqbollari moliyaviy imkoniyatlarini yangi pog'onaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimiz turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratish, jumladan, sohada xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-2019-yillarda Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy turizmga qo'shimcha tarzda – ziyorat qilish, ekologik, agroturizm, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash- sog'lomlashtirish turlarini ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatiga tatbiq etish nazarda tutilgan. Ayniqsa, bolalar, o'smir va yoshlar, oilaviy, keksalar uchun ijtimoiy turizm yo'nalishini ochish hamda kompleks rivojlantirish milliy va hududiy dasturlarni amalga oshirish bilan bog'liq. Ayni paytda O'zbekistonda yashayotgan millat va elatlarning o'ziga xos urf-odatlarini, marosim va an'analarini, tabiat bilan uyg'un hayot kechirishlari milliy mentalitetimizning umumbashariy qadriyatlariga daxldor ekanligidan dalolat beradi [6]. Ushbu qadriyatlarining mintaqaviy shakllari esa, mavjud imkoniyatlarni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, sayyohlikning mamlakat iqtisodiyotga ta'siri, aholi farovonligini yuksaltirishdagi ahamiyatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham mazkur soha izchil rivojlantirilmoqda. Ya'ni qoraqalpoq zaminidagi mavjud ulkan tarixiy, boy arxeologik, ma'rifiy va ekologik salohiyatdan samarali foydalangan holda turistik infratuzilmalarni shakllantirish borasida bosqichma-bosqich amaliy ishlar olib borilayotgani ijobiy samara bermoqda. Qoraqalpog'iston hududida 131 ta arxeologik, 25 ta me'moriy, 89 ta monumental, (39 ta diqqatga sazovor obyekt), jami 284 ta me'moriy moddiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan [2]. Ularni har tarf-lama himoya qilish, obodonlashtirish, qayta tiklash, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari belgilangan dasturlarga mos tarzda amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA

Bugungi kunda mazkur hududda 30 dan ziyod turistik tashkilotlar samarali faoliyat yuritmoqda, ularning sonini tubdan oshirish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish, sayyohlarga yanada keng qulayliklar yaratish yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Xususan, Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi tomonidan Beruniy tumanidagi "Qizil qal'a" hamda "Fil qal'a" arxeologik madaniy meros obyektlarida, Qo'ng'iroq tumanidagi "Dovut ota" maqbarasida, Xo'jayli tumani "Mizdakxon" majmuasidagi "Nazlumxan suluv" me'moriy maqbarasida obodonlashtirish va qayta ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Nukus shahrida zamonaviy, jahon andozalariga mos keluvchi 40 o'rinli, To'rtko'l tumanida 25 o'rinli mehmonxona, Qo'ng'iroq tumanidagi "Dovut ota" punktida "Ustyurt bon Voyage" mehmonxonasining 20 o'rinli filiali, Kegayli tumanidagi "Iyshan qal'a" tarixiy madaniy majmuasi va Ellikqal'a tumanidagi "Aqsha ko'l" turistik majmuasi va "Ayoq qal'a" arxeologik obyektlarida qurilish- ta'mirlash ishlari nihoyasiga yetkazilmoqda [4]. Umuman olganda, respublikaning barcha hududlarida jahon standartlariga mos keluvchi turizm infratuzilmalarini yaratish, xalqaro standartlar va me'yorlarni joriy etish, eng avvalo, sayyohlik yo'nalishidagi yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, xizmat ko'rsatish hamda logistika sub'ektlarini, tarixiy-madaniy va arxeologik obidalarini inventarizatsiya qilish, xalqaro turizm talablariga muvofiq-lashtirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda sayyohlik yo'nalishlariga kiruvchi avtomobil yo'llari va yo'lbo'yi infratuzilmalarini to'liq xatlovdan o'tkazish ishlari bo'yicha "Nukus xalqaro aeroporti", temir yo'li va avtomobil vokzallari, I. V. Savitskiy nomidagi muzey, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri, "Istiqlol" hamda "Amir Temur" dam olish maskanlariga oid rus, ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida yozilgan yangi yo'l ko'rsatkichlari o'rnatildi.

YUNESKO vakolatxonasi bilan birga "Visit Karakalpakstan" veb-saytini ishga tushirish yaqin kunlarda amalga oshiriladi. Turkiyaning "GG Turizm Sanat Yapim" kompaniyasi tomonidan Mo'ynoq tumanidagi tarixiy madaniy obyektlarda, shuningdek, Rossiyaning "Mir" xalqaro teleradio-kompaniyasi ijodiy guruhi tomonidan "Tayni vremeni" loyihasi bo'yicha Ayoq qal'a, I. V. Savitskiy nomidagi muzey, "Barsa-Kelmes" tuz ko'lida tasvirga olish ishlari olib borildi. Mo'ynoq va Orol bo'yi faunasi, mahalliy xalqning urf-odatlarini va an'alarini tasvirga olish va ko'rsatuvlar tayyorlash uchun "Moya planeta", "National Geographic", "Animal planet", "Viasat Explore" telekanallari ijodkorlari taklif etildi. Qoraqalpoq xalqining klassik shoirlari Berdaq va Ajiniyoz ijodiga bag'ishlab xalqaro musiqali mushoiralar festivali, "Orol va Mo'ynoqning qayta tiklanishi" mavzuida xalqaro ekofestival "Orolning 99 xil baliq taomlari" nomli gastronomik festivallarning nufuzi ortmoqda, shu jumladan, qatnash-



chilar uchun xalqaro maydonda yanada katta qiziqish uyg'otmoqda. "Aym tur" jamiyati, "Ayaz yurt" korxonasi, "Jahongashta" ShK, "Mavlyuda qaldirg'och" jamiyati, Quyi Amudaryo biosfera rezervati tomonidan yangi turistik yo'nalishlar ishlab chiqilib, chet ellik turoperatorlarga taqdim etildi.

Qayd etib o'tilgan mulohazalar respublikamizning ichki va tashqi salohiyatini, iqtisodiy va intellektual kuch-qudratini, o'z kasbu korimizga mahorat bilan yondashuvimizni namoyon etishda to'g'ri tanlangan strategik yo'lining ahamiyati katta ekanligini anglatadi. Bu yo'l – buyuk kelajak poydevoriga, dunyo hamjamiyatidagi o'rnimizni mustahkamlashga, ulug' maqsadlarimiz manziliga yaqinlashishni yana bir pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladi. Ayni paytda turizm jahon iqtisodiyotida yuqori daromadli, mamlakatning moliyaviy, madaniy va intellektual maqomini belgilovchi yetakchi omilga aylanib bormoqda. Xususan, Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, Xitoy va Sharqiy Osiyoning YaIM va byudjet daromadlarining katta qismi, shuningdek, ayrim "mitti" davlatlar byudjetining 70–90 foizini tashkil qilmoqda. Bu jihat, aholi bandligi ta'minlanishiga, turmush sifati hamda hayot darajasi sezilarli darajada ijobiy tarafdagi o'zgarishga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jihat turistik oqim yo'nalishlari samarali tashkil etilishiga, talab va taklif muvozanatlari me'yoriylashtirishiga ta'sir qiladi. Misol uchun, turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarda turizm turlari uyg'un holatda, mutanosib ravishda tashkil etiladi, uning muntazamligiga, xizmat qiluvchi barcha omillarning muvozanati saqlab turilishiga katta e'tibor beriladi. Statistik ma'lumotlar tahlillari shuni ko'rsatadiki, chetdan kirib keluvchi hamda ichki sayyohlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga erishish ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Mamlakatimizning turizm Industriyasi bozor munosabatlariga bosqichma- bosqich moslashtirilmoqda. Respublikamizda mavjud bo'lgan shart-sharoitlarni xalqaro turizm talablariga, umumjahon tendensiyalariga muvofiq tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini har taraflama chuqur tahlil qilish, turli mezonlar hamda qarashlarni umumlashtirish yo'li bilan ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirish mumkin. Butunjahon turizm tashkilotining tavsiyalari va mezonlariga e'tibor qaratish, mazkur bozordagi talab va taklifning o'zaro mutanosibligiga erishish talab etiladi. Masalan, ichki turizm bozorida narxlar darajasini qaytadan ko'rib chiqish, xorijiy turistik firmalarga berayotgan takliflar va ta'riflarni "cho'ntakbop" qilish ularning qiziqishlari oshirishga olib keladi.

Bu, o'z navbatida, xizmat ko'rsatish takliflarimizni jahon andozalari darajasiga yetkazish imkonini beradi. Shu bois, mamlakatimiz aholisini aksariyat qismini qishloq joylarda yashashini inobatga oladigan bo'lsak, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, tashish va sotish bilan shug'ullandigan maskanlarda milliy turmush tarzimizning o'ziga xos an'ana va qadriyatlarini yaxshi saqlanib qolgan. Shu sababli ham, mahalliy aholining ijtimoiy faolligini oshirish, zamon bilan hamnafas yashashini shakllantirishda turizm infratuzilmasi va servis xizmatlari yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur bandlek hisobiga qishloqda ijtimoiy mehnatning xarakteri davriy tus oladi, milliy ishlab chiqarish turlari rivojlanadi, eng muhimi, zamonaviy xizmat ko'rsatishning ilg'or usullari yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-son "2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlari tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz
2. Azizkulov B.X., Siddiqov A.A. Assessment of the features of investment in the development of agrotourism based on a cluster approach. *Journal of innovations in economy*. 2021. Vol. 4, Issue 1. (40-48) pp. DOI 10.26739/2181-9491-2021-1-6.
3. Tashmatov, Sh. U. (2021). Turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1128-1132.
4. Tursunov F.U., Azizkulov B.X. Rriorities of tourism and ways to increase their attractiveness. *Journal of innovations in economy*. 2021. Vol.4. Issue 5. pp: 4-10.
5. To'xliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2010. -157 b.
6. M. Aliyeva. Turizm asoslari. darslik –T.: Fan va texnologiya, 2022. -400 b.
7. M. Amonboyev, Sh. Sayfutdinov, M. Nurfayzieva Fundamentals of tourism. Textbook. TSUE. 2021.
8. M. Nurfayziyeva Turizm marketingi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2022 – 400 b.
9. www.uzbektourism.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.